

PARALLEL MATNLARNING ILK TARIXIY SHAKLLARI VA ULARNING TILSHUNOSLIKKA QO‘SHGAN HISSASI

Jo‘rayev Shohruh Baxtiyorovich

O‘zDJTU 1-kurs doktoranti

E-mail: logisgeeks@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada, corpus lingvistikasining bo‘limi parallel matnlar lingvistikasining rivojlanish tarixi, zamonaviy va antik davr ikki tilli va ko‘p tilli parallel matnlarning tilshunoslikda tutgan o‘rni, maqsad va vazifalari tahlil qilingan. Qadimgi davr bitiktoshlaridan Behistun bitiktoshi va Rozet toshlari shuningdek, Loeb kutubxonasi tahlil predmeti sifatida foydalanilgan. Maqola muallifi Mazkur bitiktoshlar asosida parallel matnlarning tilshunoslikning boshqa bo‘limlari uchun muhim statistik va tarjimashunoslikning bir qator aspektlari uchun asos vazifalari basharishi tahliliga to‘xtalgan.

Kalit so‘zlar: Parallel korpus, Rozet bitiktoshi, ko‘p tilli parallel matnlar, Behistun bitiktoshi, Loeb kutubxonasi, misr iyerogliflari, korpus lingvistikasi, tarjimashunoslik.

ABSTRACT

In this article, parallel texts as an aspect of corpus linguistics is discussed regarding of historical progress of multilingual and bilingual texts by analyzing their role, purpose and functions in linguistics, Historical stellas such as Behistun inscription, Rosetta Stone and XIX century Loeb library are chosen to be analyzed in the article. Author discusses the further progression of those inscriptions in several languages and their role in modern linguistics, compares the similarities in computer based parallel corpus linguistics as well as in translation studies.

Keywords: parallel corpus, Rosetta Stone, multilingual parallel texts, Behistun inscription, Loeb library, egyptian hieroglyphs, corpus linguistics, translation studies.

20 –asrning o‘rtalaridan boshlab fan va texnikaning rivojlanishi, qolaversa urushdan keyingi yillarda xalqlar o‘rtasidagi hamdo‘stlikning kengayishi tilshunoslikning bir qator yangi sohalari yaralishiga zamin hozirladi. Shundaylar qatorida tilshunoslikda korpus lingvistikasi degan tushuncha yuzaga keladi, va korpus lingvistikaning alohida sohasi sifatida o‘rganilishi boshlanadi. Albatta, korpus lingvistikasining yaralishi bevosita kompyuter asrining jadallashuvi bilan ham

aloqador bo‘lib, va shuning uchun ham soha kompyuter lingvistikasining bir bo‘limi hisoblanadi. Ilk kompyuterlashtirilgan korpus 1960 yillarning boshida A.Q.Shning Braun Universiteti izlanuvchilari tomonida ishlab chiqilgan. Mazkur korpus bazasida o‘sha yillarda chop etilgan badiiy, ilmiy hamda rasmiy hujjatlar va kitoblardan 500 tagacha matn yig‘ilgan hamda matnlar jami bir million so‘zni o‘zida qamrab olgan. Korpus asoschilariga ko‘ra matnlardagi leksik birliklarning ishlatilish chastotasining statistik malumotlari alohida ingliz yozma janr turlarini o‘rganishga va ularni bir biri bilan taqqoslashga xizmat qiladi. 1990 - yilga kelib dunyo bo‘ylab 600dan ko‘proq kompyuterlashtirilgan korpuslar yaratilib bo‘lingan. Bir qancha universitetlar va maktablar tomonidan korpuslar yaratilishiga katta qiziqish keyinchalik korpus lingvistikasida parallel korpuslarning ishlab chiqilishiga ham turtki bo‘ladi. Parallel korpuslarning imkoniyatlari til tadqiqotchilariga malum janrdagi so‘z va nutq birliklarning bir qancha yuzlab matnlarda turli xil struktur va semantik jihatdan ifodalanish va qo‘llanilishi ustudan ilmiy izlanishlar olib borishida qaulayliklar yaratib beradi. Asosan, avtomatlashtirilgan tarjimon dasturlarni ishlab chiqishda ikki va undan ortiq tillardagi matnlarning qulay interfeysda va yagona bazada mavjudligi tilshunos tadqiqotchilari uchun muhim obyekt vazifasini o‘tab beradi.

Buni qarangki, hali inson jamiyati rivojida korpus lingvistikasi tushunchasi fan sifatida tadbiiq etilishidan oldin, hatto inson sivilizatsiyasida tilshunoslikning fan sifatida o‘rganilib boshlashidan avval ham, bir qancha antik sivilizatsiyalar tarixida biror bir muhim tarixiy voqealar yoki hujjatlarning ikki yoki undan ortiq tillarda yonma yon bitilganli hozirgi tilshunoslarimizni hayratlantirishi sir emas. Holbuki, tarixiy parallel tilli hujjatlar va bitiktoshlarning o‘sha davr uchun qanday maqsadda yaratilganligi, hozirgi zamon tilshunosligidagi mavjud parallel korpuslardan farq qilishi ehtimoldan holi emas. Masalan, hozirda Londonning Britaniya muzeyida saqlanayotgan, miloddan avvalgi 2-asrda yaratilgan Rozet bitiktoshi. Mazkur bitiktoshning yaratilish tarixiga nazar salsak, Misrning ptolomey sulolasi vakili Ptolomey Vning taxtga o‘tirishi munosabati bilan o‘sha davr ruhoniylari tomonidan yangi podshohning shaxsiyatini ilohiylashtiruvchi diniy qonunlar bitigi sifatida yaratilgani aytiladi. Rozet bitiktoshining zamonaviy tilshunoslik uchun qo‘shgan hissasi esa uning bir paytning o‘zida 3 xil yozuvda va ikki tilda (qadimgi misr va yunon tillarida) yaratilganida: ayni shu sababli ham mazkur bitiktosh 19-asr boshida fransuz filologi va sharqshunosi Jan-Fransua Shampolonga grek yozuviga asoslangan holda misr iyerogliflarining ma’nolari yechimini aniqlashga yordam bergan, keyinchalik Shampolon qadimgi misr yozuvi va grammatikasi qonuniyatlarini ochiq lab bergan hamda, qadimgi misr tili bo‘yicha bir qancha yangiliklarga qo‘l urgan. Rozet bitiktoshidagi mavjud grek yozuvidan aniqlanishicha, toshga uch tilli yozuvlardan maqsad, misr podshohi ptolomey 5 ning hukmronligi ibtidosini ulug‘lash va o‘sha davr

misrning barcha tilli aholisiga tushunarli bo'lish uchun qadimgi misr, koptic va ellinistik tillardan foydalanilgan. Uch tilli parallel matndan maqsad, antik davrda Misr madaniyatida ilohlar tili sifatida misr iyerogliflaridan foydalanish ananasi saqlanib qolgan bo'lsa, demotik tildan rasmiy hujjatlarda foydalanilgan. Uchinchi til, yani grek tili misrda hukmronlik qilayotgan Ptolomeylar sulolasi asli yunon xalqlari bo'lganligi bilan izohlanadi. Misr iyerogliflari bilimdonlari milodiy 4-asrgacha bor yo'g'i sanoqli bo'lgan. Shuning uchun ham 18-asrga kelib iyerogliflarning o'qib tushunadigan na mahalliy, na xorijlik tilshunoslar mavjud bo'lmagan. Aynan shuning uchun ham bitiktoshning uch tilda bitilganligi yevropa filologlariga qadimgi misr iyerogliflarini o'qish imkoniyatini bergan. Bu yutuq keyinchalik tilshunoslarga misrning boshqa tarixiy obidalaridagi va qo'lyozmalaridagi iyerogliflarni o'qib tushunishga, va tadqiqotlar olib borish uchun "alifbo" vazifasini o'tab bergan, va antik tillar tarjimai rivojiga katta hissa qo'shgan.

Bundan 25 asr ilgari Eron g'arbidagi qoya toshlarga o'yib ishlangan Behustin bitiklariga to'xtalsak, bu ham bir qarashda shunchaki tarixiy bitiktoshdek tuyulsa ham aslida nafaqat ahamoniylar sulolasi davri madaniyati va siyosiy hayoti haqida ahamiyatli malumotlar mavjud, balki bitiktoshda mavjud bir nechta tillarning ikki til guruhlariga indo-yevropa va xom som tillari oilalariga mavjudligi tilshunoslarning mazkur bitiktosh orqali yuqoridagi til oilalarining tarixan struktur va sintaktik xususiyatlari o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlarini tadqiq qilishga, va zamonaviy tillarning rivojlanish bosqichlaridagi fonetik va sintaktik o'zgarishlarini tahlil qilishga manba vazifasini bajarib kelmoqda. Behistun bitiklarida uch til Qadimgi Fors, Elamit, va Bobil tillarida Doro I tomonidan uning zafarlari haqida malumotlar keltirilgan bo'lib, bitiklarni o'rganish 1802 yildan boshlab nemis filologi Georg Fridrix Grotefend tomonidan boshlangan, va keyinchalik ingliz zobiti Genri Raulinson bitiklarning muakkammal tarjimasini ishlab chiqqan. Behistun bitiklari mazmunan Doro Ining hukmronligi ulug'lash, va ahamoniy shohga vassal hududlarda yashovchi turli xalqlarni Doro Ining qonuniy taxt vorisligiga ishontirish va siyosiy propoganda maqsadida yaratilganligidan tashqari, uchta tilda bitilganligi, tilshunoslarimiz uchun qadimgi fors tili va alifbosini rashifrovka qilish imkonini bergan, ayniqsa bunga ustunlardagi elamit tili va bobil tillari muhim rol o'ynagan, sababi bobil (akkad) tili yahudiylarning bir qancha qo'lyozmalari sababli yevropa olimlariga tanish bo'lgan.

Bundan yuz yillar burungi tarixga nazar solsak ham, ko'plab metsenatlar tomonidan parallel matnlarning ikki va undan ortiq tarjimalarini yaratish g'oyalari ilgari surilgan. 20-asr boshlarida amerikalik bankir Jeyms Loeb tomonidan qadimgi grek va rim adabiyotining nodir asarlarining bitta kitobda ham original matni va inglizcha matni yonma yon chop etish g'oyasini tadbiiq etgan. Albatta, aytish mumkinki, bu o'ziga xos 1910 -1920 yillar uchun hozirgi zamon kompyuterlashtirilgan

parallel matnlarning analogi edi. G'oya muallifining fikricha, bunday nashrdan ko'zlangan maqsad, har bir o'quvchi antik davr yozuvchilarining poeziya va proza uslublaridan, grek va lotin tilining o'zgacha xususiyatidan hamda ularning ingliz tiliga muakammal tarjimasidan bir paytning o'zida barhamand bo'lish imkoniyatini berishi, qolaversa ingliz tilli olimlarning va ilm izlanuvchilarining bundan manfaat olishini ham keltirib o'tgan. Bugungi kunga kelib, Loeb Klassik nashrlariga o'xshash elektron manbalar minglab topilsa ham, 20-asr uchun mazkur to'plamlar tilshunoslar uchun grek, lotin va ingliz tillarni qiyosiy o'rganish predmeti sifatida muhim tarjima matnlari manbasi bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rozet bitiktoshi kabi ko'plab tarixiy yozma manbalar biror bir ilmiy ma'rifiy maqsadni ko'zlamagan holda yaratilishga qaramay bugungi kun tilshunosligi uchun juda qimmatli fundamental manba vazifasini o'tab bermoqda. Kompyuter tilshunosligidagi parallel korpuslar hozirgi tarjima va avtomatlashtirilgan tabiiy til dasturlarini yaratishda tutadigan o'rni va vazifasi, uning tarixiy shakllarida ham deyarli bir xil ya'ni turli tillarning fonetik, sintaktik va semantik xususiyatlarini ochiqdashda beqiyos ekanligini ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Jan Komar. Analysis and Commentary on the inscription of Behistun. Leipzig University: Faculty of History, Art and Oriental Studies. 2017
2. A.T. Olmstead. Daruis and His Behistun Inscription. Them American Journal of Semitic Languages and Literatures, Vol. 55, No. 4. 1938. Pp. 392-416
3. Lambros D. Callimahos. The Rosetta Stone and Its Decipherment. NSA Cryptomathematics Institute. 1970.
4. Karimov R.A., Mengliev B.R. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation. International Journal of Engineering and Advanced Technology(IJEAT) Volume-8, Issue 5S3. July, 2019.
5. В. П. Захаров, С. Ю. Богданова. Корпусная Лингвистика. ФГБОУ ВПО «Санкт-Петербургский государственный университет» 2013
6. Anarbaev O.R. Parallel Matnlar – Tarjima muqobillarini tahlil qilishda zamonaviy vosita. JDPI: Tadqiqot Olami. Tom 2, 2021.
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Rosetta_Stone
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Behistun_Inscription
9. [Loeb Classical Library: History | Harvard University Press](https://www.loebclassical.com/)